



TARAKKIYET TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-13, (January) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

XOLDOROVA Dilfuza Husniddinovna

Namangan viloyati Chortoq tumani

43-sonli umumta'lim maktab

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

XOLDOROVA Gulnoza Husniddinovna

Farg'ona davlat universiteti

tayanch doktoranti

ALISHER NAVOIY IJODINI 1-SINFLARDA O'QITISHNING AHAMIYATI

Ta'lim tizimi oldidagi eng asosiy vazifalardan biri muayyan soha bo'yicha yetuk bilimlarga ega bo'lgan, kelgusida kasbiy faoliyatida yangi yutuqlarga erisha oladigan keng dunyoqarashli, yetuk kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda yosh avlodni ajdodlarimiz yaratgan boy ma'naviy merosdan bahramand etish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan olib qaraganda, milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan Hazrat Navoiy asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni o'quvchilar ongiga to'laroq singdirish, qahramonlar badiiyatida ifodalangan ibratli fazilatlarni o'quvchi shaxsida kamol toptirish o'qituvchiga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir.

Ma'lumki, Alisher Navoiy haqida umumta'lim maktablarining 1-sinfidayoq ma'lumot beriladi. Buyuk bobokalonimizning ijodi yosh avlod qalbida eng ezgu fazilatlarni uyg'otishi, tarbiyalashi uchun darslikda berilgan adib ijodidan namunalarni o'quvchi qalbiga muhrlash zarur. Bu jarayon esa o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda mumtoz adabiyot bilan bog'liq ko'nikmalarni talab qiladi.

Asarlar tahlil qilinayotganda adabiyot o'qituvchisi asardagi personajlarga jonli odam tarzida munosabatda bo'lishi kerak [1, B.127].

Chindan ham bu mas'uliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisida ikki hissaga oshadi. Bu o'rinda biz birinchidan, bolalarning yosh bilan bog'liq fiziologik xususiyatini, ikkinchidan mumtoz adabiyot bilan bog'liq tushunchalarning endi shakllanayotganligi kabi omillarni nazarda tutmoqdamiz.

1-sinf "O'qish" darsligida Alisher Navoiy bobomiz haqida 4ta gapdan iborat ixcham matn berilgan. Matnni aslicha keltirishni lozim topdik.

"Alisher Navoiy buyuk shoir, olim va davlat arbobi bo'lgan. Ular kitob mutolaa qilishni juda yaxshi ko'rganlar. Besh-olti yoshida ko'plab she'rlarni yoddan bilgan. Bobomiz bizga juda ko'p asarlar yozib qoldirgan" [2, B.47].

Mazkur matn bobomiz haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirishi bilan ahamiyatli. 1-sinf o'quvchisi aynan shu matn vositasida buyuk adib haqida ilk tushunchalarni qabul qiladi. Shu o'rinda darslik mualliflariga qisqacha e'tirozimiz bor: 4 ta gapdan iborat mazkur matnda biroz uslubiy g'alizlik ko'zga tashlanadi. Matndagi 2-gapda ular va yaxshi ko'rganlar so'zlaridagi -lar qo'shimchasi bir xil uslubiy vazifa bajarmoqda. Shu uslubiy vazifa orqali o'qituvchi yosh o'quvchisida yaxshigina emotsiya hosil qilishi mumkin. Lekin 3-va 4-gapda shu uslubiy bo'yoqdorlik yo'qoladi.

Aslida 2-gapga tilning ekspressiv bo'yog'ini umuman qo'shmaslik kerak edi yoki 3- va 4-gapda buni davom ettirish shart edi. Lekin pedagogik mahoratga ega o'qituvchi das jarayonida, matn bilan tanishtirish chog'ida bu holatni o'z nutqi bilan berib o'tishi mumkin.

Matndan so'ng bobomiz haqida "Bobom Alisher" she'ri keltirilgan. Mazkur she'r vositasida Alisher Navoiyga xos xislatlar yana-da aniqlashtirilib, boyitilib boriladi. Ifodali o'qish sharti orqali esa buyuk adibning ezgu xislatlari na'muna sifatida o'quvchiga tavsiya etilishi va shakllantirilishi shart deb o'ylaymiz. Zero, 1-sinf darsligida mazkur ma'lumotlarning keltirilishidan ayni muddao ham shu.

Keyingi sahifadagi topshiriqda Navoiyning mashhur bir hikmatli so'zi orqali bir necha ta'limiy maqsadlarni amalga oshirish mumkin. Birinchidan, mashq shartini to'g'ri bajarish orqali o'quvchining o'qish, fikrni jamlash, jumlani to'g'ri tuza olish kabi ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ikkinchidan, topshiriq shartini bajarish natijasida ulug' Navoiyning aynan shu hikmati hosil bo'lishi yosh avlod uchun ayni shu yoshida eng zarur bo'lgan motivatsiyadir.

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur [2, B.48].

Avvalo, o'qituvchi Alisher Navoiy asarlarining botinidagi mag'zini o'zi anglagan bo'lishi kerak. Shundagina bu ma'noni yosh o'quvchisiga anglashi uchun yordam bera oladi. Dastlab mazkur baytdagi holatni real tasavvurini o'quvchi ongida uyg'ota olish kerak. Keyin adibning bu baytda aytmoqchi bo'lgan asosiy maqsadiga urg'u bersa bo'ladi. Bolalarni o'qishga, kitobsevarlikka Navoiy dahosi bilan boshlash judayam maroqli va to'g'ri yo'l. Bu orqali biz bolalar ongida Navoiy shaxsiga hurmat, ajdodlarimiz merosiga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishimiz mumkin. Yuqoridagi tahlilga tortganlarimiz "O'qish" darsligidagi "Kitobsevar bobom" bobida berilganligining o'ziyoq fikrimizni dalillaydi.

O'quvchilarga hikmatli so'zni yod olish topshirig'i berilgan. Bu topshiriqni ado etish orqali yosh avlod shu hikmatli so'zni nafaqat ong ostiga joylash, balki hayotda yo'lchi mayoq singari qo'llashni o'zlashtirib olishlari bu boshlang'ich ta'lim ustozining yutug'idir. Alisher Navoiyning har bir bayti bir javohir. Bu javohirlarni asrab-avaylash va yosh avlodni ham shu ruhda tarbiyalash har bir o'qituvchining eng muhim burchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent:O'qituvchi,1996.
- 2.1-sinflar uchun" O'qish" kitobi .T."Novda" 2023
3. Asqarova G. Boshlang'ich sinflarda Navoiyni qanday o'rganamiz? // Research and education.2022
4. Ro'ziqulova N. Boshlang'ich ta'limda Alisher Navoiyni innavatsion ta'lim-texnologiyalari//Pedagogik ta'lim klasteri//muammo va yechimlar xalqaro konf.materiallari//2023.